O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [14]
ISSN 2181-7324(Print)

FILOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Social sciences
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK 81'38:340.113

Dilrabo ELOVA,
PhD, dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: dilraboelova@gmail.com

Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.d Z.Xolmanova taqrizi asosida

NORMATIV MATNDA LINGVISTIK SHAKL VA HUQUQIY MAZMUN MUNOSABATI

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 14-moddasi lingvo-mantiqiy ekspertiza obyekti sifatida o‘rganiladi. Lingvistik dekompozitsiya, inferensial rekonstruksiya va normaning deontik maqomini aniqlash tartibida tahlil qilinadi. Matnda terminologik diffuziya, sintaktik qamrov noaniqligi, referensial uzilish hamda huquqni suiiste’mol qilish mezonlari qamrovining nomuvofiqligi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: Lingvo-mantiqiy ekspertiza, normativ inferensiya, terminologik diffuziya, sintaktik qamrov, referensial uzilish, deontik maqom, qalbaki bitim, ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitim, huquqni suiiste’mol qilish, huquqiy aniqlik.

THE RELATIONSHIP BETWEEN LINGUISTIC FORM AND LEGAL CONTENT IN NORMATIVE TEXTS

Annotation

The article examines Article 14 of the Tax Code of the Republic of Uzbekistan as an object of linguo-logical expertise. The provision is analysed through linguistic decomposition, inferential reconstruction and determination of the deontic status of the norm. The analysis identifies terminological diffusion, syntactic scope ambiguity, referential discontinuity and a mismatch in the scope of the criteria for abuse of law.

Key words: Linguo-logical expertise, normative inference, terminological diffusion, syntactic scope, referential discontinuity, deontic status, sham transaction, simulated transaction, abuse of law, legal certainty.

СООТНОШЕНИЕ ЯЗЫКОВОЙ ФОРМЫ И ПРАВОВОГО СОДЕРЖАНИЯ В НОРМАТИВНОМ ТЕКСТЕ

Аннотация

В статье статья 14 Налогового кодекса Республики Узбекистан рассматривается как объект лингво-логической экспертизы. Анализ проводится путём лингвистической декомпозиции, инференциальной реконструкции и определения деонтического статуса нормы. В тексте выявлены терминологическая диффузия, неопределённость синтаксического охвата, референциальный разрыв, а также несогласованность объёма критериев злоупотребления правом.

Ключевые слова: Лингво-логическая экспертиза, нормативная инференция, терминологическая диффузия, синтаксический охват, референциальный разрыв, деонтический статус, мнимая сделка, притворная сделка, злоупотребление правом, правовая определённость.

Kirish. Normativ matndagi ma’no faqat so‘z ma’nolari yoki gapning umumiy mazmuni orqali shakllanmaydi. Bu jarayonda grammatik shakl, sintaktik qamrov va matn ichidagi havolalar muhim hisoblanadi. Ayrim hollarda ular normativ xulosani boshqa tomonga burib yuboradi [7]. Soliq qonunchiligida bu holat alohida ahamiyatga ega, chunki bu yerda talqindagi kichik siljish bevosita mulkiy oqibatga aylanadi.

Soliq kodeksining 14-moddasi (“Bitimning haqiqiy iqtisodiy mazmuni”) shu nuqtayi nazardan alohida diqqatga sazovor. Modda soliq solishda iqtisodiy mazmunning yuridik shakldan ustunligini e’lon qiladi, qalbaki bitimlarni soliq hisobidan chiqaradi, huquqni suiiste’mol qilish tushunchasini kiritadi va soliq organiga soliq summalarini qayta belgilash imkonini beradi [1]. Bir moddaning o‘zida tamoyil, vakolat normasi, ta’rif o‘rnidagi tavsif va protsessual qoida jamlangan. Bunday normalar odatda suiiste’molga qarshi umumiy qoidalar deb ataladi. Ularning tabiatiga xos ziddiyatni T.Endikott ham qayd etadi. Qoida qanchalik aniq bo‘lsa, uni chetlab o‘tish shunchalik oson. Qoida qanchalik umumiy bo‘lsa, soliq organining vakolati shunchalik keng [12]. Shu sababli bunday normalarda baholovchi tushunchadan butunlay voz kechish maqsadga muvofiq emas, ammo bu har qanday noaniqlikni oqlamaydi.

Moddaning qo‘llanishi bilan bog‘liq savollar 2021-yildayoq ochiq muhokamaga chiqqan edi va mutaxassislar bitimni qalbaki deb topish uchun qanday ko‘rsatkichlar asos bo‘lishi kodeksda belgilanmaganini qayd etishgan [18].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqotning nazariy asosini H.Xartning ochiq tekstura konsepsiyasi [11], T.Endikottning huquqiy noaniqlik nazariyasi [12] hamda K.Alchurron va E.Buliginning normativ bo‘shliq haqidagi qarashlari [16] tashkil etadi. O‘zbek tilshunosligida lingvistik ekspertizaning nazariy va metodik asoslari K.Musulmonova tadqiqotlarida tizimlashtirilgan [17].

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot Soliq kodeksining 14-moddasi asosida olib borildi [1]. Aniqlangan hodisalarni baholashda Fuqarolik kodeksining 124-moddasi [2], Oliy sud Plenumining tegishli qarori [3], Yevropa Ittifoqining 2016/1164-sonli direktivasi [4] hamda Yevropa Ittifoqi Sudi amaliyotiga [5; 6] murojaat qilindi.

Lingvo-mantiqiy tahlil uch tahliliy yo‘nalishda olib borildi. Lingvistik dekompozitsiyada atama ma’nosi, qavs va izohlovchi konstruksiya, sintaktik qamrov, ko‘plik shakli, majhul nisbat va havola birliklari tekshiriladi. Inferensial rekonstruksiyada esa qaysi fakt qaysi xulosaga olib kelayotgani ko‘riladi. Xulosada aytilmagan oraliq shart bor-yo‘qligi, bitta fakt asosida ortiqcha umumlashtirish qilinayotgani va fakt bilan huquqiy oqibat o‘rtasida uzilish borligi ham shu yerda aniqlanadi. Bunda S.Tulminning dalil modeli qo‘l keladi [14]. Aytilmagan mazmunni tiklashda P.Graysning implikatura nazariyasiga tayanamiz [15]. Uchinchi yo‘nalish normaning deontik maqomini aniqlashdan iborat. Unda norma ruxsat, majburiyat yoki taqiqni ifodalayotgani,

vakolat kimga berilgani va huquqiy oqibat majburiy yoki diskretsion ekani baholanadi. Uning nazariy asosini G.fon Vraytning deontik mantiq konsepsiyasi tashkil etadi [13].

Uch yo‘nalish birgalikda quyidagi zanjirni ochadi: til birligi → normativ mazmun → faktik shart → xulosa → huquqiy oqibat. Xulosa qaysi til birligiga tayanayotganini ko‘rsatish uchun matndagi bog‘lovchi yoki qavs konstruksiyasi o‘zgartirilganda ma’no qanday siljishini kuzatuvchi kontrfaktual talqin usulidan ham foydalanildi [8].

Taklif etilayotgan tartib huquqiy talqinni almashtirmaydi. U normativ xulosaning qaysi til birliklariga asoslanishini, matnning qaysi o‘rinlari aniq ifodalanganini va qayerda qo‘shimcha mantiqiy xulosa chiqarish zarur bo‘lishini ko‘rsatadi. Yakuniy huquqiy baho esa sud yoki boshqa vakolatli organ tomonidan beriladi [10].

Tahlil va natijalar. 14-modda mazmunan yaxlit emas, u sakkiz mustaqil qoidadan tashkil topgan. Bular iqtisodiy mazmunning yuridik shakldan ustunligi tamoyili; shakl va mazmun mos kelmaganda qayta tavsiflash vakolati; qalbaki bitimning soliq hisobidan chiqarilishi; niqoblangan bitim natijasining hisobga olinishi; soliqqa oid bo‘lmagan qoidalarni ayrim buzishning ahamiyatsizligi; huquqni suiiste’mol qilish tavsifi; suiiste’mollik ta’sirini bartaraf etuvchi qayta hisoblash; holatni aniqlash va sud nazorati tartibi. Bu segmentlar bir xil huquqiy tabiatga ega emas. Birinchisi tamoyil, ikkinchi va yettinchisi vakolat normasi, uchinchi va oltinchisi ta’rif o‘rnida keladigan tavsif, sakkizinchisi protsessual qoida. Mazkur qoidalarning qo‘llanish chegaralarini ajratuvchi mezonlar yetarli darajada ifodalanmagan. Qayta tavsiflash vakolati bitimni saqlab, uni boshqa huquqiy shaklda hisobga oladi. Qalbaki bitim haqidagi qoida esa uni soliq hisobidan butunlay chiqaradi. Matnda bu ikki yo‘lni ajratuvchi mezon berilmagan.

Beshinchi qoidaga ko‘ra, bitim ishtirokchilarining barchasi shartnoma shartlarini bajarayotgan bo‘lsa, soliqqa oid bo‘lmagan hujjatlardagi qoidalarning ayrim buzilishi daromad yoki xarajatni tan olishni rad etish uchun asos bo‘la olmaydi [1]. Bu qoida moddaning ichki muvozanatini ta’minlovchi element hisoblanadi.

Ushbu maqolada terminologik diffuziya ikki mustaqil atamaning matniy vosita orqali bir semantik doiraga siqilishi ma’nosida qo‘llanadi [7]. Moddaning uchinchi qoidasi shunday boshlanadi: “Qalbaki (ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan) bitimlar soliq solish maqsadida hisobga olinmaydi” [1]. Qavs o‘zbek yozma nutqida, odatda, oldingi so‘zning izohi yoki muqobil nomi sifatida ishlatiladi. Shu sababli o‘quvchida qavs ichidagi birlik qavsdan oldingi atamaning sinonimi degan presuppozitsiya hosil bo‘ladi.

Fuqarolik kodeksining 124-moddasi esa bunga zid tuzilgan. Unda ikki atama bog‘lovchi bilan ajratiladi va ular uchun turli oqibat belgilanadi. Nomigagina tuzilgan bitim qalbaki hisoblanadi. Boshqa bitimni niqoblash maqsadida tuzilgan bitimga esa taraflar haqiqatda nazarda tutgan bitimning qoidalari qo‘llaniladi [2]. Tenglashtirishning nomuvofiqligi moddaning o‘z matnidan ham ko‘rinadi. Keyingi jumla “agar bunday bitimlar boshqa bitimlarni niqoblasa” degan shartni kiritadi. Ammo niqoblash ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitimning ta’rifiy belgisidir. Agar qavs ikki atamani tenglashtirgan bo‘lsa, bu shart ortiqcha bo‘lib qoladi. Shart mazmunli bo‘lsa, qavsning izohlash vazifasi shubha ostida qoladi. Demak, ikkala talqin bir vaqtda to‘g‘ri bo‘la olmaydi.

Shu o‘rinda referensial uzilish ham kuzatiladi. “Bunday bitimlar” ko‘rsatkichi qalbaki bitimlarga qaytadimi, ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilganlarigami yoki har ikkisigami, matnda ajratilmagan [7]. Bu ikki holat o‘rtasidagi farq huquqiy jihatdan muhim. Qalbaki bitimda tekshiruv hujjatda ko‘rsatilgan bitimning amalda bajarilgan-bajarilmaganini hamda taraflarda haqiqiy iroda mavjudligini aniqlashga qaratiladi. Ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan bitimda esa buning o‘zi yetarli emas. Yashirilgan bitimning turi, taraflari, predmeti va huquqiy natijasi ham aniqlanishi lozim. Soliq kodeksida bu institutlarning qavs orqali tenglashtirilishi mazkur farqning matnda yaqqol ko‘rinmay qolishiga olib keladi.

Modda huquqni suiiste’mol qilishni ketma-ket ikki marta tavsiflaydi. Birinchisiga ko‘ra, soliq to‘lovchining harakatlari yagona yoki ustuvor maqsadi asossiz soliq nafi olish yoxud soliq summasini kamaytirish bo‘lgan taqdirda suiiste’mol deb e’tirof etiladi. Ikkinchisiga ko‘ra, soliq summalarini kamaytirishga oid sxema ham suiiste’mol hisoblanadi. Bunda kamaytirish bevosita yoki bilvosita maqsad yoxud oqibat bo‘lishi, maqsadlardan yoxud oqibatlardan biri bo‘lishi va ikkinchi darajali bo‘lmasligi yetarli [1].

Bu ikki mezon bir xil qamrovga ega emas. Birinchisi soliq maqsadining boshqa maqsadlardan ustun turishini talab qiladi. Ikkinchisi esa uning ikkinchi darajali bo‘lmasligi bilan cheklanadi. Soliq maqsadi tadbirkorlik maqsadi bilan taxminan teng bo‘lgan holat birinchi mezon doirasiga tushmaydi, ikkinchisiga esa tushadi [7; 8].

Yevropa Ittifoqining suiiste’molga qarshi umumiy qoidasiga ko‘ra, e’tiborga olinmaydigan tuzilma uchta belgini birgalikda talab qiladi. Soliq imtiyozini olish asosiy maqsad yoki asosiy maqsadlardan biri bo‘lishi, imtiyozning tegishli soliq normasi maqsadiga zid bo‘lishi va tuzilmaning barcha holatlarni hisobga olgan holda haqiqiy emasligi shular jumlasidandir. Haqiqiy emaslik esa iqtisodiy voqelikni aks ettiruvchi asosli tijorat sabablarining yo‘qligi orqali aniqlanadi [4]. Yevropa Ittifoqi Sudi ham suiiste’mol amaliyotini ikki shartning birgalikda mavjudligi bilan bog‘laydi [5]. Xalqaro shartnomalar sohasidagi asosiy maqsad testi ham imtiyozni rad etish uchun normaning maqsadiga zidlik shartini saqlaydi [9]. Qiyoslanayotgan qoidalarda maqsad mezoni yolg‘iz ishlamaydi. 14-moddaning ikkinchi mezonida esa normaning maqsadiga zidlik sharti yo‘q. Chet el qoidalarida “maqsad” bilan “oqibat” bir qatorga qo‘yilmaydi. 14-moddada esa niyatdan qat’i nazar, natijaning o‘zi ham asos bo‘lishi mumkin.

Moddaning o‘zi soliq summalarini kamaytirish tarkibiga “soliq imtiyozlaridan foydalanish”ni ham kiritadi. Qonunda nazarda tutilgan imtiyozdan foydalangan soliq to‘lovchi uchun soliqning kamayishi ikkinchi darajali oqibat emas. Demak, matnning bevosita ma’nosi bo‘yicha u ikkinchi mezon doirasiga tushadi. Bunday natijadan faqat “sxema” so‘zining baholovchi mazmuni va birinchi mezondagi “asossiz” belgisi saqlab qoladi.

Ikkinchi mezondagi “bevosita yoki bilvosita” birikmasi faqat maqsadgami, faqat oqibatgami yoki har ikkisiga taalluqlimi, jumlaning o‘z tuzilishidan hal qilinmaydi. “Ayrim operatsiyalarni yoki operatsiyalar ketma-ketligini e’tiborga olmaslikka haqli” qoidasida esa ko‘plik shakli ham distributiv, ham kollektiv talqinga yo‘l ochadi. Yevropa Ittifoqi qonunchiligida bu masala “qay darajada” yondashuvi bilan hal etilgan [4]. Unga ko‘ra, qoida tuzilmaning faqat haqiqiy bo‘lmagan qismlariga nisbatan qo‘llanadi, qolgan hollarda soliq to‘lovchi o‘z tijorat ishlari uchun eng samarali tuzilmani tanlash huquqiga ega. 14-moddada na bu chegara, na tanlash huquqi ko‘rsatilgan.

“Haqli” birligi bir qarashda ruxsat ma’nosini bildiradi, ayrim normativ kontekstlarda esa vakolatni anglatadi [7]. 14-moddada u vakolat ma’nosida ishlaydi, biroq ruxsat shaklida ifodalangan. Natijada vakolatdan foydalanish shartlari matnda belgilanmay qoladi.

“Hisobga olinmaydi” birligi majhul nisbatda berilgani uchun harakat bajaruvchisi matndan chekinadi. “Aniqlash” fe’li vakolatli subyektni belgilaydi, ammo isbotlash yukini taqsimlamaydi va dalillarning yetarliligiga talab qo‘ymaydi. Oliy sud Plenumi bu bo‘shliqni protsessual jihatdan qisman to‘ldirgan [3]. “Ta’sirini istisno etadigan tarzda” iborasi esa qayta hisoblashning maqsadini belgilaydi, hajmini ochiq qoldiradi. Yevropa Ittifoqi Sudi amaliyotida qayta hisoblash aniqlangan buzilish doirasi bilan chegaralanadi [5].

1-jadval.

14-moddadagi lingvo-mantiqiy hodisalar

Normativ birlik	Hodisa turi	Huquqni qo‘llashdagi xavf
“qalbaki (ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan)”	terminologik diffuziya	ikki institutning aralashtirilishi
“bunday bitimlar”	referensial uzilish	tekshiruv predmetining noaniqligi

Normativ birlik	Hodisa turi	Huquqni qo‘llashdagi xavf
“ustuvor maqsad” / “ikkinchi darajali bo‘lmaydi”	mezonlar qamrovining nomuvofiqligi	bir vaziyatga ikki xil huquqiy natija
“soliq imtiyozlaridan foydalanish”	inferensial kengayish	imtiyozdan foydalanishning haddan tashqari keng talqin qilinishi xavfi
“bevosita yoki bilvosita”	sintaktik qamrov noaniqligi	xulosa hajmining o‘zgarishi
“ayrim operatsiyalarni”	distributiv va kollektiv talqin ikkiligi	qayta hisoblash doirasining o‘zgarishi
“o‘zgartirishga haqli”	vakolatning ruxsat shaklida ifodalanishi	vakolatdan foydalanish shartlarining belgilanmagani
“hisobga olinmaydi”	normani amalga oshiruvchi subyektning ochiq ko‘rsatilmagani	qoidani qo‘llash tartibining noaniqligi
“ta’sirini istisno etadigan tarzda”	oqibat hajmining ochiq qolishi	qayta hisoblash chegarasining belgilanmagani

Muhokama. Aniqlangan hodisalarni bir toifaga qo‘shish to‘g‘ri bo‘lmaydi, chunki ularning bartaraf etilish yo‘li ham har xil. “Asossiz”, “ustuvor”, “sxema” kabi ochiq baholovchi tushunchalar o‘z-o‘zidan nuqson hisoblanmaydi. H.Xart va T.Endikott ularni normaning moslashuvchanligini ta’minlovchi vosita sifatida baholaydi [11; 12]. Referensial uzilish va sintaktik qamrov noaniqligi tizimli talqin yo‘li bilan qisman to‘ldirilishi mumkin.

Terminologik diffuziya boshqacha holat. U ikki mustaqil institutning chegarasini xiralashtiradi va bu chegara boshqa kodeksda allaqachon o‘rnatilgan. Sharhlash yo‘li bilan uni tiklash mumkin, ammo bunda Soliq kodeksi matni Fuqarolik kodeksi matniga qarshi o‘qilishi kerak bo‘ladi. Bu esa huquqiy aniqlik talabiga mos kelmaydi.

Mezonlar qamrovining nomuvofiqligi eng og‘ir toifadir. Ziddiyat matnning o‘zida joylashgani uchun uni sharhlash bilan bartaraf etib bo‘lmaydi. Normativ bo‘shliq nazariyasi atamalarida bu holat vaziyat tavsifi bilan huquqiy oqibat o‘rtasidagi bog‘lanishning ikki xil variantda berilishi sifatida ta’riflanadi [16]. Chet el qoidalaridagi uch elementdan 14-moddaning birinchi mezonida maqsad va asossizlik bor, normaning maqsadiga zidlik esa bevosita ifodalanmagan. Ikkinchi mezonda faqat maqsad yoki oqibat qoladi. Elementlar sonining kamayishi qoidaning qamrovini kengaytiradi.

Xulosa va takliflar. 14-moddadagi sakkiz qoidaning chegarasi matnda belgilanmagan. Qavs vositasidagi tenglashtirish Fuqarolik kodeksining 124-moddasida alohida farqlangan ikki turdagi bitimning semantik va huquqiy tafovutlarini yeterlicha aks ettirmaydi. Suiiste’mol mezonlarining qamrovi bir-biriga mos kelmaydi, “haqli”, “hisobga olinmaydi” va “aniqlash” birliklari esa vakolat, subyekt va isbotlash masalalarini ochiq qoldiradi. Bu kuzatuvlardan kelib chiqadigan takliflarning hammasi ham qonunni o‘zgartirishni talab qilmaydi. Moddaning beshinchi qoidasini talqinda saqlash, qayta tavsiflash va ko‘zbo‘yamachilikni ajratib qo‘llash amaldagi norma doirasida ham mumkin.

Terminologik diffuziya va mezonlar nomuvofiqligini esa sharhlash bilan bartaraf etib bo‘lmaydi. Shu sababli qonun matniga o‘zgartirish kiritish zarur, deb hisoblaymiz. Jumladan, “qalbaki” va “ko‘zbo‘yamachilik uchun tuzilgan” bitimlar Fuqarolik kodeksidagi kabi ikki mustaqil holat sifatida ajratilishi, suiiste’mol tarkibiga normaning maqsadiga zidlik sharti kiritilishi kerak. “Haqiqiy iqtisodiy mazmun”, “asossiz soliq nafi” va “sxema” birikmalarining mazmunini ochib berish, soliq to‘lovchining qonunda nazarda tutilgan tartibni tanlash huquqini mustahkamlash ham maqsadga muvofiq. Qayta hisoblash chegarasi, holatni aniqlovchi subyekt va isbotlash yuki normada ochiq ko‘rsatilishi lozim.

Taklif etilgan tahlil tartibini soliq nizolari bo‘yicha sud qarorlari materialida sinab ko‘rish keyingi tadqiqotimiz vazifasidir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 14-modda // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). – https://lex.uz/docs/-4674902
2. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (birinchi qism). 124-modda // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz). – https://lex.uz/docs/-111189
3. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining “Sudlar tomonidan soliq qonunchiligini qo‘llashning ayrim masalalari haqida” 2023-yil 20-fevraldagi 4-son qarori. – https://lex.uz/docs/-6402529
4. Council Directive (EU) 2016/1164 of 12 July 2016 laying down rules against tax avoidance practices that directly affect the functioning of the internal market (ATAD), Art. 6 // OJ L 193, 19.7.2016. – P. 1–14.
5. Court of Justice of the European Union, judgment of 21 February 2006, Case C-255/02, Halifax plc and Others, EU:C:2006:121.
6. Court of Justice of the European Union, judgment of 12 September 2006, Case C-196/04, Cadbury Schweppes plc and Cadbury Schweppes Overseas Ltd, EU:C:2006:544.
7. Elova D.Q. Agglutinativ tillarda normativ inferensiya (o‘zbek huquqiy diskursi misolida) // Science Time (Ilm vaqti). – 2026. – Vol. 4, №5/2. – B. 834–850.
8. Elova D.Q. Huquqiy diskursda pragmatik implikatura va yashirin normativ ma’no // NamDU Ilmiy axborotnomasi. – 2026. – №5. – B. 976–980.
9. OECD. Preventing the Granting of Treaty Benefits in Inappropriate Circumstances, Action 6 – 2015 Final Report. OECD/G20 Base Erosion and Profit Shifting Project. – Paris: OECD Publishing, 2015.
10. Elova D.Q. Lingvo-mantiqiy ekspertiza yuridik lingvistikaning mustaqil yo‘nalishi sifatida // Xorazm Ma’mun akademiyasi axborotnomasi. – 2026. – №6/4 (139). – B. 89–96.
11. Hart H.L.A. The Concept of Law. 2nd ed. – Oxford: Clarendon Press, 1994. – 315 p.
12. Endicott T. Vagueness in Law. – Oxford: Oxford University Press, 2000. – 218 p.
13. von Wright G.H. Deontic Logic // Mind. – 1951. – Vol. 60, №237. – P. 1–15.
14. Toulmin S. The Uses of Argument. Updated ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 247 p.
15. Grice H.P. Logic and Conversation // Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts / Ed. by P. Cole, J.L. Morgan. – New York: Academic Press, 1975. – P. 41–58.
16. Alchourrón C.E., Bulygin E. Normative Systems. – Wien; New York: Springer, 1971. – 208 p.
17. Musulmonova K.X. O‘zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertiza qilish jarayoni, bosqichlari va metodlari: Filol. fan. b-cha falsafa dokt. (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2023. – 52 b.
18. Bitim haqiqiy yo qalbaki ekanini nega sud emas, soliqchilar hal qilyapti? // Kun.uz. – 2021-yil 2-mart.